

**USHBU ANGLASHUV MEMORANDUMI** (keyingi o‘rinlarda “Memorandum” deb yuritiladi) 2024-yil 12-avgustda tuzilgan.

**LONDON UNIVERSITETI** ozod xayriya va qonuniy korporatsiyasi (raqami RC000661}, shtab-kvartirasi Senat uyi, Malet ko‘chasi, London, WC1E 7HU, Angliya (keyingi o‘rinlarda “UoL” yoki “Universitet” deb yuritiladi)

**VA**

**TOSHKENT DAVLAT YURIDIK UNIVERSITETI**, O‘zbekiston Respublikasida ro‘yxatdan o‘tkazilgan muassasa, ro‘yxatdan o‘tish raqami 001956-10 va manzili Toshkent 100047, O‘zbekiston, Sayilgoh ko‘chasi 35 (keyingi o‘rinlarda “TDYU” deb yuritiladi).

har biri “Tomon” va birgalikda “Tomonlar” deb yuritiladi.

Ushbu Memorandum umumiy kelishuv hisoblanib, Universitet va TDYU o‘rtasida majburiy yuridik ahamiyatga ega bo‘lish uchun mo‘ljallanmagan, biroq Memorandumda boshqacha qoida nazarda tutilgan hollar bundan mustasno.

## **1. MEMORANDUM MAVZUSI VA MAQSADLARI**

1.1 Ushbu band yuridik kuchga ega emas.

1.2 Ushbu Memorandum Tomonlar o‘rtasida haqiqiy va o‘zaro manfaatli hamkorlikni rivojlantirish niyatining bayonotidir.

1.3 TDYU yuridik kadrlarni tayyorlash bo‘yicha O‘zbekistonda tayanch oliy o‘quv va ilmiy-uslubiy muassasa hisoblanadi.

1.4 Ushbu Memorandumdan Tomonlarning asosiy maqsadi 2.2-bandda batafsil bayon qilinganidek, tan olingan o‘quv markazini tashkil etish orqali o‘zaro hamkorlikni rivojlantirish uchun birgalikda faoliyat olib borishdir.

## **2. HAMKORLIK SOHALARI**

2.1 Ushbu band yuridik kuchga ega emas.

2.2 Tomonlar quyidagi sohalarda potensial hamkorlik imkoniyatlarini o‘rganadilar:

2.2.1 TDYUga London universitetining o‘quv markazi maqomini berish va boshqa ta‘lim sohasidagi hamkorlikni rivojlantirish masalalarini muhokama qilish.

2.3 Agar Tomonlar 2.2-band bo‘yicha muhokamalar natijasida ma‘lum bir dastur yoki faoliyatni amalga oshirishga kelisha, tomonlar bunday dastur yoki faoliyat bo‘yicha majburiy bitimni tuzishlari va bajarishlari shart.

2.4 Universitet va TDYU vaqti-vaqti bilan birgalikda Tomonlarning budjetlari va resurslariga muvofiq qo‘shimcha qo‘shma tadbirlarni o‘tkazish imkoniyatini ko‘rib chiqishi mumkin. Tegishli hollarda, Tomonlar qo‘shimcha faoliyatni amalga oshirish bo‘yicha alohida rasmiy bitimlarni tuzish majburiyatini kelishadilar.

## **3. KELISHUV MUDDATI VA UNI TUGATISH TARTIBI**

3.1 Ushbu band yuridik kuchga ega emas.

3.2 Ushbu Memorandum oxirgi Tomon imzolagan kundan boshlab kuchga kiradi va ikki yil davomida amal qiladi, shu muddat ichida u har ikki Tomonning yozma kelishuvi bilan yangilanmaguncha avtomatik ravishda tugatiladi.

3.3 Har bir Tomon boshqa Tomonni olti oy oldin yozma ravishda xabardor qilish orqali Memorandumni bekor qilishi mumkin. Ushbu Memorandumning amal qilishini tugatish, uning tugatilishidan oldin tuzilgan loyiha yoki dasturlarni amalga oshirishga, agar Tomonlar o'rtasida bunday loyihalar yoki dasturlar bo'yicha rasmiy qonuniy kuchga ega bo'lgan shartnoma tuzilgan bo'lsa, ta'sir qilmaydi.

3.4 Ushbu Memorandum Tomonlardan biri tarafidan boshqa Tomonni istalgan vaqtda yozma ravishda xabardor qilish orqali darhol bekor qilinishi mumkin, agar boshqa Tomon:

3.4.1 Ushbu Memorandum bo'yicha o'z majburiyatlarini jiddiy ravishda buzgan bo'lsa va buzilish to'g'risida yozma xabar olgandan keyin 30 kun ichida bu buzilishni bartaraf eta olmasa (bartaraf etish imkoni bo'lgan hollarda); yoki

3.4.2 bir Tomonning asosli fikriga ko'ra, boshqa Tomonni sharmanda qilgan yoki boshqa yo'l bilan Tomonning obro'siga putur yetkazgan yoki obro'siga putur yetkazishi mumkin bo'lgan har qanday harakat yoki harakatsizlik bilan shug'ullangan bo'lsa.

#### **4. HAMKORLIK MEXANIZMLARI VA MOLIYALASHTIRISH TARTIBI**

4.1 Ushbu band yuridik kuchga ega emas.

4.2 Tomonlar o'rtasida 2-bandga muvofiq yuridik kuchga ega bo'lgan birinchi rasmiy kelishuvga erishilganidan so'ng, TDYU va Universitet vakillari ushbu Memorandum doirasida ko'zda tutilgan hamkorlik faoliyatini amalga oshirish bo'yicha muzokaralar olib borish va loyiha shartnomalari va hamkorlik dasturlarini tuzish uchun uchrashishlari mumkin.

4.3 Tomonlar o'rtasida 2-bandga muvofiq birinchi rasmiy qonuniy kuchga ega bo'lgan kelishuv amalga oshirilgandan so'ng, har bir loyiha shartnomasi va hamkorlik dasturidan kelib chiqadigan moliyaviy kelishuvlar, intellektual mulk huquqlari va shartnomalari har bir loyiha shartnomasi va hamkorlik dasturiga nisbatan tuziladigan qonuniy majburiy yozma shartnomalarda belgilanadi. Bunday qonuniy majburiy yozma kelishuvlar har bir alohida holatda moliyaviy majburiyatlarni bajarish uchun har bir tomonning javobgarligini aniq belgilashi kerak, shu jumladan, faoliyat xarajatlari, ish haqi, transfer, turar joy va tegishli loyiha shartnomasi va hamkorlik dasturi bilan bog'liq boshqa xarajatlar.

#### **5. QONUNLARGA MUVOFIQLIK**

5.1 Ushbu band yuridik kuchga ega.

5.2 Har bir Tomon boshqasi oldida barcha amaldagi qonunlarga, shu jumladan ma'lumotlarni himoya qilish, korrupsiyaga qarshi kurashish, qullik va odam savdosiga qarshi kurashish, soliq qonunchiliklariga rioya qilish majburiyatini oladi. Ushbu 5.2-bandning buzilishi Memorandumning jiddiy buzilishi deb hisoblanadi.

5.3 Ushbu Memorandum doirasidagi har qanday faoliyat bilan shug'ullanuvchi TDYU xodimlari va talabalari O'zbekiston qonunchiligiga hamda TDYUning amaldagi tartib va qoidalariga rioya qilishlari shart.

5.4 Universitet xodimlari va talabalari ushbu Memorandum doirasidagi har qanday faoliyatni amalga oshirishda Angliya qonunlariga hamda Universitetning amaldagi tartib va qoidalariga rioya qilishlari shart, jumladan ular O'zbekiston Respublikasida ushbu Memorandum doirasidagi har qanday faoliyat bilan shug'ullanganlarida, Universitet ularning O'zbekiston Respublikasi qonunlariga va TDYUning amaldagi qoidalari va tartiblariga rioya qilishlarini ta'minlaydi.

## **6. INTELLEKTUAL MULK HUQUQLARI**

6.1 Ushbu band yuridik kuchga ega.

6.2 Har bir Tomon boshqa Tomon bilan bog'liq intellektual mulk huquqlari barcha maqsadlar uchun boshqa Tomonning mutlaq mulkini tashkil etishini tan oladi va qabul qiladi.

6.3 Har bir Tomon ushbu Memorandumdagi hech bir bandi Tomon nomiga va/yoki logotipiga egalik qilish yoki undan foydalanish huquqini boshqa tomonga bermasligini tan oladi, ushbu Memorandum doirasida belgilangan hollar bundan mustasno.

6.4 Har bir Tomon boshqa Tomonga faqat cheklangan muddatga o'z tovar belgilaridan ushbu Memorandum bo'yicha o'z majburiyatlarini bajarish maqsadlarida foydalanish uchun eksklyuziv bo'lmagan, o'tkazilmaydigan, qaytarib olinmaydigan litsenziya beradi, agarda har bir Tomon maqsadli foydalanishning har bir holatida har qanday tovar belgilarining shakli va ishlatilishi bo'yicha boshqa tomonlarning oldindan yozma roziligini olgan bo'lsa.

6.5 Har bir Tomon boshqa Tomon nomini va/yoki tovar belgilarini ro'yxatdan o'tkazishni xavf ostiga qo'yadigan yoki bekor qilishi mumkin bo'lgan har qanday xatti-harakatni amalga oshirmaslik majburiyatini oladi.

6.6 Har bir Tomon ushbu Memorandum doirasida o'zining oshkor qilingan intellektual mulkiga egalik huquqini saqlab qoladi. Shuning uchun bunday intellektual mulk huquqlari mulk egasining oldindan yozma roziligisiz har qanday shaklda elektron yoki qog'oz shaklda, shu jumladan, fotokopiyalash, har qanday saqlash yoki qidirish tizimiga yozib olish ko'rinishida tarqatilishiga yo'l qo'yilmaydi.

6.7 Ushbu Memorandum imzolanganidan so'ng yaratilgan har qanday intellektual mulk huquqi Tomonlarning yozma ravishdagi kelishuviga asosan belgilanadi.

6.8 Tomonlarga tovar belgilaridan keladigan barcha foyda faqat tegishli tovar belgisiga ega bo'lgan Tomonga tegishli bo'ladi.

6.9 Ushbu Memorandum asosida tayyorlangan barcha reklama adabiyotlari va boshqa materiallar Tomonlar tarafidan belgilangan mualliflik huquqi va tovar belgisiga oid belgiga ega bo'lishi kerak.

## **7. MAXFIYLIK**

7.1 Ushbu band yuridik kuchga ega.

7.2 Qo'llanilishi mumkin bo'lgan qonun hujjatlariga muvofiq majburiyatlarni hisobga olgan holda, har ikkala Tomon, shu jumladan ularning xodimlari, subpudratchilari, maslahatchilari va har qanday tomonning holding kompaniyasi ushbu Memorandumning amal qilish muddati davomida va uning amal qilish muddati tugaganidan yoki muddatidan oldin bekor qilinganidan keyin besh yil davomida maxfiylikni saqlashi shart. Tomonning mijozlariga va murojaatchilariga tegishli maxfiy ma'lumotlar, hamda ushbu Memorandumdan kelib chiquvchi g'oyalar ham sir saqlanishi shart, agar Tomonlar yozma ravishda boshqacha kelishuvga erishmagan bo'lsa. Tomonlar Maxfiy ma'lumotlardan faqat ushbu Memorandumning 1.4-bandida ko'rsatilgan maqsadlarda foydalanadilar.

7.3 Ushbu 8-bandda ko'rsatilgan Maxfiy axborot bo'yicha majburiyatlar ushbu ma'lumotlarga taalluqli emas:

7.3.1 qabul qiluvchi tomonning (yoki uning maslahatchilarining) yozma hujjatlari asosida tasdiqlangan va oshkor qiluvchi tomondan to'g'ridan-to'g'ri yoki bilvosita olinmagan, oldin qonuniy ravishda qabul qiluvchi tomon yoki uning maslahatchilariga tegishli bo'lgan ma'lumotlar;

7.3.2 oshkor qilish muddatida yoki qabul qiluvchi tomonning harakatlarisiz omma uchun ochiq bo'lgan ma'lumotlar; yoki

7.3.3 qonuniy huquqqa ega bo'lgan har qanday uchinchi tomon tarafidan maxfiy bo'lmagan axborotni qabul qiluvchi tomonga taqdim etilgan ma'lumotlarga mohiyatan mos keladi.

7.4 Har bir Tomon Maxfiy ma'lumotni har qanday vakolatli yurisdiksiya sudining yoki har qanday vakolatli sud, hukumat yoki tartibga soluvchi organning talabiga ko'ra minimal darajada oshkor qilishi mumkin.

## **8. KORRUPSIYAGA QARSHI KURASHISH CHORALARI**

8.1 Ushbu band yuridik kuchga ega.

8.2 Har bir Tomon boshqasi oldida o'z yurisdiksiyasida korrupsiyaga qarshi kurash bo'yicha amaldagi qonunlar, qoidalar, kodekslar va sanksiyalarga, shuningdek, boshqa tomonning korrupsiyaga qarshi siyosatiga rioya qilish majburiyatini oladi. 8.2-bandning buzilishi Memorandumning jiddiy buzilishi deb hisoblanadi va Tomonlardan biri boshqa Tomonni yozma ravishda xabardor qilish orqali Memorandumni darhol bekor qilish uchun asos bo'ladi.

## **9. MA'LUMOTLARNI HIMOYA QILISH VA AXBOROT ERKINLIGI**

9.1 Ushbu band yuridik kuchga ega.

Tomonlar o'rtasida tuzilgan har qanday keyingi yuridik kuchga ega bo'lgan shartnomalarning qo'shimcha shartlarini hisobga olgan holda, ushbu Memorandum bo'yicha majburiyatlarni bajarishda, shu jumladan, talabalar bilan bog'liq barcha masalalarda, har bir Tomon ma'lumotlarni himoya qilish bo'yicha o'zining tegishli milliy qonunchiligiga rioya qilish majburiyatini oladi. Qonunchilik Buyuk Britaniyaning 2018-yilgi ma'lumotlarni himoya qilish to'g'risidagi qonunini va Buyuk Britaniyaning umumiy ma'lumotlarni himoya qilish qoidalarini o'z ichiga oladi, lekin ular bilan cheklanmaydi.

9.2 TDYU Universitet davlat organi sifatida Buyuk Britaniyaning 2000-yildagi Axborot erkinligi to'g'risidagi qonuni (FOIA) va 2004-yildagi Atrof-muhit qoidalarini tan olishi va shunga ko'ra, FOIA qoidalariga muvofiq ushbu Memorandum haqidagi ma'lumotlarni e'lon qilishni talab qilishi mumkinligini hisobga oladi. Universitet so'roviga ko'ra, TDYU barcha zarur yordamni ko'rsatadi va Universitetning oshkor qilish bo'yicha majburiyatlarini o'z vaqtida bajarish majburiyatini oladi.

## **10. O'ZGARTIRISH VA QO'SHIMCHALAR KIRITISH TARTIBI**

10.1 Ushbu band yuridik kuchga ega emas.

10.2 Ushbu Memorandumga faqat har bir Tomonning imzosi bilan yozma shaklda tasdiqlangan o'zaro kelishuv asosida o'zgartirishlar kiritilishi mumkin.

10.3 Ushbu Memorandum har yili Tomonlar tarafidan o'zaro qayta ko'rib chiqiladi.

## **11 VIJDONIYLIK VA NIZOLARNI HAL QILISH TARTIBI**

11.1 Ushbu band yuridik kuchga ega emas.

11.2 Memorandumni imzolashda Tomonlar Memorandumning amal qilishi davomida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan har qanday kutilmagan holatlar uchun qo'shimcha shartlar ishlab chiqish maqsadga muvofiq emasligini tan oladilar.

11.3 Shunga ko'ra, Tomonlar ushbu Memorandum asosida vijdoniylik tamoyillariga muvofiq, adolatli va biron bir Tomonning manfaatlariga zarar yetkazmasdan faoliyat olib borishga kelishadilar.

Tomonlar nizo kelib chiqqan hollarda uni bartaraf etish uchun zarur va adolatli, oqilona sa'y-harakatlarini amalga oshiradilar.

Tomonlar ushbu Memorandumda belgilangan tartib-qoidalarga zid bo'lishi mumkin bo'lgan hech qanday harakatni amalga oshirmaslik majburiyatini oladilar. Har bir Tomon o'zini professional tarzda va qoniqarli hamkorlik munosabatlariga erishishga mos tarzda tutishga intiladi.

## **12. MEMORANDUM XARAJATLARI VA JAVOBGARLIGI**

12.1 Ushbu band yuridik kuchga ega emas.

12.2. 2-bandda ko'rsatilgan har qanday hamkorlik sohalarini amalga oshirish manfaatdor Tomonning resurslari va moliyaviy barqarorligiga bog'liq ekanligi tushuniladi.

12.3 Ushbu Memorandum o'z-o'zidan Tomonlarni hech qanday moliyaviy xarajatlarga majburlamaydi.

12.4 Ushbu Memorandumda aksi aniq ko'rsatilgan hollar bundan mustasno bo'lib, har bir Tomon ushbu Memorandum bo'yicha o'z majburiyatlarini bajarish uchun o'z xarajatlarini o'z zimmasiga oladi.

12.5 Har bir Tomon ushbu Memorandum bo'yicha o'zining va o'z xodimlarining harakatlari yoki harakatsizligi tufayli yuzaga keladigan har qanday yo'qotishlar yoki majburiyatlar uchun javobgar bo'ladi. Tomonlarning hech biri boshqa Tomonning ushbu Memorandum natijasida sobiq Tomon ko'rgan har qanday zarar uchun javobgar deb topmaydi. Hech bir Tomonga boshqa Tomonning yozma roziligisiz uning nomidan xarajatlarni qoplashga ruxsat berilmaydi.

12.6 Tomonlar ushbu qoidalarga zid ravishda boshqa biron bir vakillik, harakat yoki harakatsizlik uchun javobgar bo'lmaydi.

## **13. EKSKLYUZIVLIK**

13.1 Ushbu 13-band yuridik kuchga ega.

13.2 Ushbu 13-bandning maqsadlari uchun Uchinchi tomon bilan muzokaralar Tomonlar bilan bog'liq bo'lgan, bir Tomonning o'zi, uning guruhining har qanday a'zosi (yoki ularning tegishli agentlari, xodimlari, maslahatchilari yoki boshqa vakillari) va uchinchi tomon o'rtasidagi muzokaralarni va tijorat kelishuvlarini anglatadi, (2.2, 2.3 va 18.3-bandlarga o'xshash yoki ularga zid kelishi mumkin bo'lgan tijorat kelishuvlari).

13.3 Ushbu Memorandum imzolanganidan so'ng Tomonlar hozirda bo'lib o'tayotgan har qanday uchinchi tomon bilan muzokaralarini to'xtatadilar yoki tugatishni ta'minlaydilar.

13.4 Ushbu 13-bandda ko'rsatilgan o'zaro majburiyatlarni hisobga olgan holda, Tomonlardan hech biri Memorandum tuzilgan kundan boshlab olti oylik muddat ichida (eksklyuzivlik davri) bevosita yoki bilvosita ushbu majburiyatlarni o'z zimmasiga olmaydi:

13.4.1 uchinchi tomonlar bilan har qanday muzokaralarga kirish, davom ettirish, boshlash yoki boshqa yo'l bilan ishtirok etish;

13.4.2 uchinchi tomonlar muzokaralariga olib kelishi mumkin bo'lgan har qanday yondashuvni izlash, rag'batlantirish;

13.4.3 uchinchi tomonlar muzokaralariga muvofiq har qanday taklif xati, kelishuv (yuridik jihatdan majburiy bo'lgan yoki bo'lmagan) tuzish; yoki

13.4.4 o'zi yoki uning guruhining a'zosi to'g'risidagi har qanday ma'lumotni uchinchi tomon muzokaralariga kiritishni xohlashi mumkin bo'lgan tomonlarga taqdim etishi yoki boshqacha tarzda oshkor qilishi (agar ma'lumotlar ommaga ochiq bo'lmasa).

13.5 Tomonlar o'zlarining mansabdor shaxslari, xodimlari, agentlari, maslahatchilari va boshqa vakillari, guruhi a'zolarining ushbu 13-banddagi majburiyatlarga rioya qilishlarini ta'minlaydilar.

13.6 Har bir Tomon, agar Eksklyuzivlik muddati davomida u yoki guruhining har qanday a'zosi uchinchi tomondan ko'rsatma olgan bo'lsa, darhol yozma ravishda (elektron pochta o'z ichiga oladi)

boshqasini xabardor qilishi lozim.

#### **14. TO'LIQ KELISHUV**

14.1 Ushbu band yuridik kuchga ega.

14.2 Ushbu Memorandum Tomonlar o'rtasidagi to'liq kelishuvni tashkil qiladi va ular o'rtasidagi, uning predmeti bilan bog'liq bo'lgan, barcha oldingi, yozma yoki og'zaki kelishuvlar, va'dalar, kafolatlar, bayonotlar va tushuntirishlarni bekor qiladi.

#### **15. MEMORANDUMNING HUQUQIY MAQOMI**

15.1 Ushbu band yuridik kuchga ega.

15.2 Ushbu Memorandum Tomonlar o'rtasida majburiy bo'lmagan kelishuv hisoblanib, bundan 6 (Intellektual mulk huquqlari), 8 (Korrupsiyaga qarshi kurashish choralari), 9 (Ma'lumotlarni himoya qilish va axborot erkinligi), 10 (O'zgartirish va qo'shimchalar kiritish tartibi), 13 (Eksklyuzivlik), 14 (To'liq kelishuv), 15 (Memorandumning huquqiy maqomi), 16 (Topshiriqlar), 17 (Ogohlantirishlar va o'zaro aloqa), 18 (Uchinchi shaxslarning huquqlari), 19 (Boshqaruv qonunchiligi va yurisdiksiya) yuridik jihatdan majburiy hisoblanib, ushbu Memorandumning amal qilish muddati tugashi yoki Memorandum muddatidan oldin bekor qilingan taqdirda ham saqlanib qoladi.

15.3 Ushbu Memorandum hujjatda tavsiflangan bitimlar bo'yicha shartnomani tashkil etmaydi yoki tomonlarga yuridik jihatdan majburiy bitimlar tuzish yoki ushbu hujjatda ko'zda tutilgan bitimni boshqacha tarzda yakunlash bo'yicha (15.2-bandda ko'rsatilgan bandlar bundan mustasno) har qanday qonuniy majburiyatlarni yuklamaydi. Shunga ko'ra, hech bir Tomon ushbu Memorandumning amal qilish muddati tugashi yoki muddatidan oldin tugatilishidan keyin ham ushbu Memorandumda bayon etilgan masalalar bo'yicha hamkorlikni yoki muzokaralarni davom ettirishga majbur emas.

15. Hech bir Tomon boshqasiga nisbatan ushbu Memorandumning predmeti bo'yicha hech qanday huquqlarga ega bo'lmaydi, 7, 8, 9, 10, 14, 15, 16, 17, 18, 19 va 20-bandlar va hujjatda aniq ko'rsatilgan boshqa hollar bundan mustasno.

15.5 Har qanday amaldagi majburiy ish munosabatlari ikkala Tomonning yozma tijorat shartnomalari bilan tasdiqlangan roziligi asosida bajarilishi kerak.

15.6 Ushbu Memorandumdagi hech bir bandi Tomonlar o'rtasida biron bir huquqiy sheriklik yoki qo'shma korxonalar tashkil etishga, Tomonlardan birini boshqa Tomonning agenti etib tayinlashga, hamda bir Tomonni ikkinchi Tomon uchun majburiyatlarni uning roziligisiz belgilashga qaratilmagan.

#### **16. TOPSHIRIQLAR**

16.1 Ushbu band yuridik kuchga ega.

16.2 Hech bir Tomon boshqa Tomonning oldindan yozma roziligisiz (bunday rozilik asossiz ushlab qolinmasligi yoki kechiktirilishi mumkin emas) ushbu Memorandum bo'yicha o'z huquq va majburiyatlarini boshqasiga o'tkaza olmaydi.

#### **17. OGOHLANTIRISHLAR VA O'ZARO ALOQA**

17.1 Ushbu band yuridik kuchga ega.

Har qanday Tomon tarafidan yuborilgan har qanday xabarnoma yozma ravishda tuzilishi kerak va agar u shaxsan yoki oldindan to'langan ro'yxatdan o'tgan pochta orqali manzilga yoki (vaziyatga qarab) Tomonning elektron pochta manziliga yuborilgan bo'lsa, o'z vaqtida yuborilgan hisoblanadi.

17.2 Xabarnomalar tegishli tarzda yuborilishi kerak:

17.2.1. xabarnoma shaxsan topshirilganda, yetkazib berish vaqtida; yoki

17.2.2 birinchi toifali oldindan to'langan pochta yoki elektron tarmoq orqali yuborilgan xabarnoma jo'natilgan kundan boshlab yetti ish kunidan keyin; yoki

17.2.3 elektron pochta xabari yuborilgan quyidagi hollarda:

i. jo'natuvchi yetkazib berilmaganligi to'g'risida bildirishnoma olmagan va avtomatik ravishda "ish joyidan tashqarida" yoki shunga o'xshash qaytib kelgan ko'rsatmalarga rioya qilgan; va

ii. jo'natuvchi telefon orqali qabul qiluvchiga qo'ng'iroq qilgan va qabul qiluvchi yoki har qanday avtomatik "ish joyidan tashqarida" yoki shunga o'xshash xabarda ko'rsatilgan shaxs bilan gaplashgan va bunday shaxs og'zaki ravishda xabarnomaning qabul qilinganligini tasdiqlagan; va

iii. jo'natuvchi qabul qiluvchidan yoki har qanday avtomatik "ish joyida emas" yoki shunga o'xshash xabarnomada ko'rsatilgan shaxsdan xabarnomaning qabul qilinganligi to'g'risida elektron pochta orqali xabar olgan.

17.2.4 Har bir bildirishnoma quyida ko'rsatilgan manfaatdor Tomon manziliga yoki ushbu bandga muvofiq boshqa Tomonga oldindan xabar berishi kerak bo'lgan boshqa manzilga yuborilishi kerak.

UNIVERSITET

Elektron pochta manzili: Peter.O'Hara@london.ac.uk

Diqqat: Piter O'Hara

TDYU

Elektron pochta manzili: [international.tsul@gmail.com](mailto:international.tsul@gmail.com)

Diqqat: Fitrat Umirov

17.3 Tomonlar ushbu Memorandumning amalga oshirilishini ta'minlash, uni uzaytirish yoki tugatish bo'yicha muzokaralar olib borish va kelishish, zarur hollarda loyiha rejalarini, maslahat xarajatlarini, tashrif buyuruvchilarni va kutubxonaga kirishni birgalikda kelishilishini ta'minlash maqsadida quyidagi mas'ul shaxslarni aniqladilar:

17.3.1 Universitet uchun: Piter O'Xara yoki ularning vakili(lar)i

17.3.2 TDYU uchun: Fitrat Umirov yoki ularning vakili(lar)i

## 18. UCHINCHI SHAXSLARNING HUQUQLARI

18.1 Ushbu band yuridik kuchga ega.

18.2 Ushbu Memorandumning tarafi bo'lmagan shaxs 1999-yildagi Shartnomalar (uchinchi shaxslarning huquqlari) Qonuniga binoan ushbu Memorandumning har qanday shartlarini bajarish huquqiga ega emas.

## 19. BOSHQARUV QONUNCHILIGI VA YURISDIKTSIYA

19.1 Ushbu band yuridik kuchga ega.

19.2 Ushbu Memorandumning shartlari Angliya qonunlariga muvofiq tartibga solinadi va talqin qilinadi va har bir Tomon ingliz sudlarining mutlaq yurisdiksiyasiga bo'ysunishga rozi.

19.3 Ushbu Memorandum ingliz tilida tuzilgan. Boshqa tilga qilingan har qanday tarjima barcha Tomonlar uchun hujjatning asl nusxasi bilan bir xil majburiyatlarni belgilashi kerak. Hech qanday tarjima rasmiy maqomga ega emas.

**YUQORIDAGILARNI TASDIQLAB,** Tomonlar ushbu Memorandumning tegishli tarzda bajarilishini ta'minlaydilar. Har bir Tomon o'zining tegishli imzolari quyida keltirilganligini kafolatlaydi va imzo orqali ushbu Memorandumni bajarish uchun tegishli tartibda vakolatga ega ekanligini tasdiqlaydi.

<b>Islombek Rustambekov</b>	100047 Toshkent sh.Sayilgoh 35-uy O'zbekiston
Rektor vazifasini vaqtincha bajaruvchi	Sana: <i>12.08.2024</i>
Toshkent davlat yuridik universiteti	Imzo: 



<b>Holly Shiflett</b>	Stewart uyi 32 Russell Square London WC1B 5DN Buyuk Britaniya
London universitetining butun dunyo bo'ylab ijrochi direktori	Sana: 12.08.2024
London universiteti	Imzo: DocuSign Envelope ID: 42949D67-8529-4BC4-9C4E-A6F2A8F15C4E